

ABDURAZZOQ SAMARQANDIY

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Muhiddinov Sardorxon


AX23_08-guruh talabasi

Annotatsiya:

Bu maqolada Abdurazzoq Samarqandiy hayoti va faoliyati yoritiladi .

Kalit so'zlar: islom, Qur'on, din, ilm, Hirot, ma'rifat, elchi, sodiqlik.

Abdurazzoq Samarqandiy (arabcha: **عبدالرزاق سمرقندي** — Abdurazzoq Samarqandiy — To'liq ismi: Abu Muhammad Kamoliddin Abdurazzoq ibn Jaloliddin Ishaq Samarqandiy(1413-1482)) — Muhaddis, tarixchi va elchi.



Abdurazzoq Samarqandiy hijriy 816-yil 12-sha'bon (1413-yil 7-noyabr) kuni Hirot shahrida tavvalud topgan. Shunga qaramay, otasi Jaloliddin Ishaqning asli Samarqandlik bo'lganligi va bo'lajak tarixnavisning o'zi ham bir necha muddat Samarqandda yashaganligi „Samarqandiy“ nisbasi bilan shuhrat topganligiga sababdir. Abdurazzoq Samarqandiy dastlabki ta'limni Hirotning o'zida olgan. Hirotidagi badavlat va nufuzli xonadonlarning biriga mansubdir.

Keyinchalik Hirotidagi Temuriylar saroyida qozilik va imomlik lavozimida bo'lgan otasi va o'z davrining ziyolilaridan bo'lgan akalari Abulg'affor, Abdulqahhor, Abdulvahhoblar ko'magida tafsir, hadis, fiqh, tarix, til va adabiyot fanlari bo'yicha chuqur ma'lumot egasi bo'lib yetishgan. Alisher Navoiy „Majolisun-nafois“ asarida Abdurazzoq Samarqandiyning mazkur ilmlar bo'yicha yaxshi

bilimga ega ekanligini quyidagi soʻzlar bilan tasdiqlaydi: „Mavlono Abdurazzoq... xushmuhovara kishi erdi... zohir ulumin takmil qilib erdi va fazliyoti ham yaxshi erdi...“ Otasining saroydagi tutgan mavqeiga koʻra taxmin qilish mumkinki, Abdurazzoq Samarqandiy ham davlat ishlari bilan yaqindan tanish boʻlgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yaxshi tahsil koʻrganligi, bu boradagi iqtidori borligi tufayli otasi vafotidan soʻng, 1437/1438-yil, 24 yoshida Temuriylar saroyiga xizmatga olinishi bejiz emas. Shundan soʻng, to 50 yoshiga qadar, avval Shohruh, keyin Hirot taxtini egallagan boshqa Temuriy hukmdorlar - Mirzo Abulqosim Bobur (1452-1457-yil), Sulton Abu Saʼid (1451-1469-yil) va taxtga oʻtirgan boshqa shahzodalar saroyida davlat ishlari bilan band boʻladi. Uning zamondoshi Abdulvoseʼ Nizomiyning yozishicha, Abdurazzoq Samarqandiy „Xoqoni saʼid (yaʼni Shohruh)ning davlati zamonida uzoq muddatlar shuhratli ishlarni bajarishni zimmasiga olgan, baʼzi sohib davlat shahzodalarning xizmatida sadoratlik oliy mansabiga yetishgan, baʼzi boshqalarning mulozimatida esa noiblik va xoslikka erishgan“. Biroq, Abdurazzoq Samarqandiyning oʻzi asarida mazkur sadoratlik lavozimlarini eslatmasada, tarixiy voqealar sirasidan uning Temuriylar davlati xorijiy diplomatik munosabatlarni olib borishda muhim rol oʻynaganligi anglashiladi. Abdurazzoq Samarqandiy tafsir, hadis, tarix, til va adabiyoti fanlarini puxta egallagan va arab tili grammatikasiga ba gʻishlangan „Risolai Azdudiya“ga sharh yozadi va „Sharhu-r-risolati-l-azdiya fi maʼna-l-huruf va-l-ishorot“ ("Harflar va belgilarning maʼnosi haqidagi „Ar-risolatu-l-azdiya“ga sharh") deb nomlaydi. Shohruh saroyida diplomatik yozish-malarni olib borishda qatnashadi, elchilar boshligʻi sifatida 1442-1444-yillarda Hindiston janubidagi Kalikut, Xinovar, Mangalur, Bilur, Bokanur va Vijay anagarga borib keladi. 1446-1447-yillarda Shohruh uni diplomatik topshiriq bilan Gilonga joʻnatadi. Hayotining keyingi davrlarida Abulqosim Bobur saroyida xizmat qiladi. Boburning Mozandaronga (1453-yil), soʻngra Samarqandga (1454-yil) qilgan yurishlarida qatnashadi. 1463-yilga kelib esa Abdurazzoq Samarqandiy oʻz iltimosiga binoan davlat ishlaridan ozod etiladi va Abu Said Mirzo Abdurazzoq Samarqandiy Hirotidagi Shohruhiya xonaqohiga shayx etib tayinlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy hijriy 887-yil jumodu-l-avval (1482-yil iyul-avgust) oyida shu shaharda vafot etgan¹.

Abdurazzoq Samarqandiy sheʼr, arab tili grammatikasiga oid risola yozganligi maʼlum boʻlsada, lekin uning bizgacha yetib kelgan yagona tarixiy asari - „Matlaʼi

¹ Abdurazzoq Samarqandiy. www.wikipedia.uz



sa'dayn va majma'i bahrayn" („Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi“)dir. Asar fors tilida yozilgan bo'lib, ikki jumlani tashkil etadi. Abdurazzoq Samarqandiy asarni asosan 1467-1469-yillar orasida yozib tamomlagan va 1470-yili yana davom ettirib, shu yilning safar oyida tugallagan. „Matla'i sa'dayn“ning birinchi jildida qisqa tarzda Chingizxon avlodidan bo'lgan Eron hukmdori Abu Sa'id (1316 –1335) haqida so'zlagach, so'ng sohibqiron Amir Temur tarixi boshlanadi va umuman 1304_yildan 1405yilgacha Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron, Ozarbayjon, qisman Hindiston va boshqa mamlakatlar tarixiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Tarixiy voqealar bayoni Amir Temurning 17 -sha'bon, 807 (18 fevral, 1405) yili O'trorda vafot etganligi, uning nabirasi Xalil Sultonning Samarqandda taxtga o'tirganligi bilan tugallanadi. Ikkinchi jildning so'zboshisida muallif Amir Temur avlodlari haqida so'zlamoqchi ekanligini aytib, voqealarni Shohruhning Hirotda taxtga o'tirgan vaqtidan (mart, 1405) boshlaydi. So'ng Shohruh (vafoti 1447)dan keyin hukmronlik qilgan Temuriylar: Mirzo Abulqosim Bobur, Sulton Abu Sa'id va boshqa shahzodalardan so'zlab bo'lgach, Husayn Boyqaroning Hirotda Yodgor Mirzoni qatl etib, ikkinchi marta taxtga o'tirishi haqidagi ma'lumotlar bilan asarni tugatadi². Abdurazzoq Samarqandiy „Matla'i sa'dayn“da tarixiy voqealar bayonini solnoma tarzida joylashtirgan. Asarning muallif o'zi yashagan davrdan (XV asr o'rtalari) ilgarigi qismlari solnomasi avval yozilgan asari asosida tuzilgan. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiyning o'zi 1427-yil voqealarini yakunlar ekan: "Hofizi Abruning yozgani... „Zubdatu-t-tavorixi Boysung'uriy“ shu yerda tugadi", deydi va o'zining asosiy manbai ushbu asar ekanligini ta'kidlaydi. E'tiborga sazovor tomoni shuki, Abdurazzoq Samarqandiyning „Matla'i sa'dayn“ asari o'z davrida shuhrat topgan va bir qancha tarixnavislar tomonidan e'tirof etilgan. So'ngra bu asar Temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xalqaro munosabatlari tarixiga oid nodir va ishonchli manba sifatida Yevropada ham tanilib, uning ayrim qismlari XIX asrdan boshlab bir necha marta fransuz, ingliz va rus tillarida chop etilgan. „Matla'i sa'dayn“ning fors matni 1936-yili Lohurda (Pokiston) matnshunos olim Muhammad Shafe tomonidan chop etilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning 1442-1444-yillardagi Hindiston safarnomasi 1960-yili o'zbek tilida va forsiy tan qidiy matni bilan, asarning 1405-1427-yillar voqealari (I jild, 1-qism) 1969-yili O'zbek tilida chop etilgan. 1992-yili esa „Matla'i sa'dayn“ning shu

² Temuriylar tarixi asari. Madraimov, Abdumajid. Manbashunoslik: Bakalavriatning tarix yo'nalishi talabalari uchun darslik. A. Madraimov, G. Fuzailova, T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.



qismiga kiritilgan G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safari kundaligi o'zbek tilida chop etgan. Asarning II jild 2-3-qismlari ham o'zbek tilidagi tarjimasi amalga oshirilgan bo'lsada, hanuzgacha chop etilgani yuq.

Abdurazzoq Samarqandiy o'z davrining o'qimishli va aqli o'tkir kishilaridan bo'lgani sababli, Shohrux uni hurmat qilar va muhim vazifalarni ishonib topshirardi. Jumladan, sayyoh, avvalo, Hindistonga, so'ngra Gilonga (Kaspiy dengizining janubi-g'arbida, hozirgi Eron hududida) elchi etib tayinlanib, ushbu yurtlarga yuborilgan.

Ma'lumki, Hindistonga safar qilgan O'rta Osiyolik olim va sayyohlarning aksariyati bu ishni quruqlik orqali amalga oshirishgan. A.Samarqandiy esa mintakamizdan chiqqan geograf va sayyohlar ichida birinchi bo'lib 1441-1444-yillarda Hindistonga g'arbdan - Hind okeani orqali kemada suzib borgan va uning janubiy viloyatlarida bo'lgan. U sayohati davomida Xurosonning qumli cho'llari, Markaziy Osiyoning janubi, Ozarbayjon, Eron va Iroq orqali o'tib, Fors ko'rfazidan Arabiston dengiziga chiqqan va mazkur den-giz orqali Hindistonga yetib borgan.

Hindiston safari natijasi ularoq, A.Samarqandiy «Hindiston safari dostoni va yer ajoyibotlarining sharhi, garoyibotlarning bayoni» asarini yozdi. Bu asar boshqacha qilib «Hindiston safarnomasi» deb ham ataladi. Abdurazzoq Samarqandiyning «Hindiston safarnomasi» asosiy asari hisoblanmish «Matlai sa'dayn va majmai bayrayn» («Ikki saodatli yo'lduzning chikish va ikki dengizning qushilish joyi») kitobiga alohida bob tarzida kiritilgan. Bu bobni yozishda muallif o'zi ko'rgan-bilganlaridan iborat boy materiallarning mavjudligini va zamondoshlarining uzoq mamlakatlar haqidagi ajoyib hikoyalar va aniq ma'lumotlar bilan juda qiziqqanligini inobatga olgan.

«Hindiston safarnomasi»da olim Hindiston, uning tabiati, tog'lari, dengiz va daryolari, bu yerda yashaydigan halklar, ularning urf-odatlarini, aholining mashg'uloti, shaharlari, o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xosligi, qazilma boyliklari va boshqa tabiiy resurslari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.

Hindistonga qilgan sayohati davomida Samarqandiy Hindiston yarimoroli janubidagi Kalikut, Bajonagar va Xirlish shaharlarida bo'lib, ularning aholisi, hunarmandchiligi, san'ati, savdo-sotig'i, hayvonot va o'simlik dunyosini kuzatgan hamda bu ma'lumotlarni asarida bayon etgan. Shuningdek, A.Samarqandiyning «Hindiston safaronoma»si Yaqin Sharq va Markaziy Osiyoga qo'shni bo'lgan boshqa mamlakatlarning XV asrdagi geografiyasi, tarixi va etnografiyasiga oid qimmatli qo'llanma ham hisoblanadi.



O`zbek sharqshunosi A.O`rinboyev Abdurazzoq Samarqandiyning «Hindiston safarnomasi»ni bir necha nushalariga solishtirib chiqib, o`zbek tiliga tarjima qilgan va asarning mukammal ilmiy izohlarini tayyorlab, chop ettirgan.

Olim «Hindiston safarnomasi»da shunday yozadi: «1441-yili... Ho`rmuz viloyati va dengiz sohillariga qarab safarga otlandim. Bu dostonda... har xil ajoyib-g`aroyiblar so`z ipiga teriladi, uch yil muddat ichida ko`rgan-kechirgan holatim va qo`rqinchli voqealarim mufassal, ham qisqa holda qaytadan bayon qilinadi. So`ng faqir ilgari va`da qilganiga muvofiq Xuroson, Movarounnahr, Fors, Iroq va Ozarbayjonlarda bo`lib o`tgan voqealar bayon qilinadi...».

Ho`rmuz (hozirgi Eronning Bandar-Abbos) bandargohining o`sha vaqtlarda juda katta xalqaro savdo markazi bo`lgani va A.Samarqandiyning esa geografiyani yaxshi bilgani yuqoridagi satrlardan ko`rinib turibdi. Olim iste`dodli qalamkash bo`lgani bois har bir hodisani badiiy obraz va o`xshatishlar, yaqqol ifodalar bilan tasvirlagan³.

Ho`rmuz bandargohidan jo`nagan sayyoh va uning hamrohlari 18 kun deganda Hindistonning Kalikut shahriga yetib borishgan. Bu shahar Hindistonning janubi-g`arbida joylashgan bo`lib, hozirda uning nomi Kojikode va bu yerda 450 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Bu shahar haqida Samarqandiy shunday yozadi: «Kolikut xavfsiz va obod bir bandargohdir, ko`p mamlakat va diyorlarning savdogarlari ham bo`lishi va dengiz sohilidagi yerlarning, xususan, Xabasha, Zirbod va Zangibor mamlakatlarining mollaridan ko`plab nafis narsalar topilishi bilan u Ho`rmuzga o`xshab ketadi...», «...Kolikutdan Makkai Muborakka kemalar qatnab turadi va ko`pincha murch olib boradi. Bu bandarda hamma narsa topiladi...».

Shunisi e`tiborga loyiqki, Abdurazzoq Samarqandiydan 56 yil keyin portugal sayyohi Vasko da Gama kemalari ayni shu Kalikut bandargohiga kelib to`xtagan. Abdurazzoq Samarqandiy Kalikutdan Bajonagarga o`tib, u yerda o`z elchilik vazifasini o`tab, Hindlarning hayoti, urf-odatlarini, bayramlari hamda o`lkaning savdo-sotig`i, odamlari, hayvonlari va o`simliklarini kuzatib, ko`rgan-kechirgan ajoyibotlarning hammasini safarnomasida ta`riflagan. Orqaga - Hindistondan Ho`rmuz bandargohiga qadar bo`lgan yo`l esa 75 kunda bosib o`tildi. Keyin sayyoh-elchi quruqlik orqali Xirotda qaytgan. Uning Hindistonga bo`lgan mazkur sayohati jami uch yil davom etgandi.

³ Z. Munavvarov va boshqalar. Renessans olimlari qomusi (o`zbekcha, inglizcha va arabcha), 2021-yil – 21 bet.



Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safari ushbu sirli diyorni nafaqat o`rta osiyoliklar, balki yevropaliklar uchun ham kashf qilgan. Manbalarga ko`ra, Samarqandiydan ancha keyin Hindistonga borgan rus sayyohi A.Nikitin va golland sayyohi Vasko da Gama o`z sayohatlarini tashkil etishda ma`lum darajada hamyurtimizning tajribasidan foydalanishgan ekan. Xullas, A.Samarqandiyni Hindistonga boradigan ham quruqlik, ham dengiz yo`lini kashf etgan ilk sayyohlardan biri, deb aytish mumkin⁴.

Nasihatlari

- Bu dunyo va uning mol-mulkiga ko`ngil qo`ymagin.chunki hech bir kishi undan vafo ko`rmagan.
- Agar yomonlik qilmagan bo`lsang ,kishilardan hadiksiramagin.hamisha o`z qilmishingning himoyasiga sig`ingin.
- Biror xatoga yo`l qo`ygan kishi uzr so`ragani durust. Axir odam ham uzr so`raganligidan bir natijaga etishgan.
- Har qancha yaxshilik ko`rsatilganda ham ,dushman qo`lidan dushmanlikdan bo`lak ish kelmaydi.
- Dushman lashkari ichida kelishmovchilik bor ekan ,sen o`z shamshiringni qinidan sug`urmay qo`yaber!
- Oqil kishilar do`st bilan dushmanni ,dushman bilan do`stni alishtirmaydilar.

Asarlari

- Sharhu-r-risolati-l-azdiya fi ma`na-l-huruf va-l-ishorot“,
- Matlai sa`dayn va majmai bahrayn“,
- Hindiston safarnomasi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Kamoliddin Abdurazzoq ibn Jaloliddin Is`hoq Samarqandiy 1413-yili Hirot shahrida tug`ilgan va 1482-yil shu yerda vafot etgan. Dastlabki ta`limni otasi va Hirot madrasalaridagi mudarrislardan olgan. Abdurazzoq Samarqandiy o`z davrining yetuk namoyondasi va diplomat sifatida ham muhim shaxs hisoblangan. Uning asarlarida Geografiya va tarixiy voqealik aks etgan. Uni dastlabki sayyohlardan desa arziydi.

⁴ Abdurazzoq Samarqandiy. www.ziyo.uz

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temuriylar tarixi asari. Madraimov, Abdumajid. Manbashunoslik: Bakalavriatning tarix yo'nalishi talabalari uchun darslik. A. Madraimov, G. Fuzailova. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
2. Z. Munavvarov va boshqalar. Renessans olimlari qomusi (o'zbekcha, inglizcha va arabcha), 2021-yil – 21 bet.
3. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
4. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
5. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
6. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
7. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
9. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

VEB SAYTLAR

1. Abdurazzoq Samarqandiy. www.wikipedia.uz (veb sayti)
2. Abdurazzoq Samarqandiy. www.ziyo.uz (veb sayti)

